

**PAXTAKOR TUMANI AXBOROT-KUTUBXONA
MARKAZI AXBOROT-BIBLIOGRAFIYA XIZMATI
TOMONIDAN TAYYORLANGAN**

ESLATMA

**O`TKIR HOSHIMOVNING 82-YILLIGIGA
BAG`ISHLAB**



PAXTAKOR-2023-Y

O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov Toshkentning Do‘mbirobod dahasida 1941 yilning 5 avgustida tavallud topgan bo‘lib, bolaligi urush qiyinchiliklari, muhtojliklari davrida kechgan. Shu tufayli u o‘rta maktabni a’lo baholar bilan bitirgan bo‘lsa ham oilaviy sharoiti yuzasidan ishlab turib o‘qishga majbur bo‘lgan. Toshkent Davlat universiteti jurnalistika fakultetining sirtqi bo‘limida o‘qish bilan «Temiryo‘lchi», «Toshkent haqiqati», «Qizil O‘zbekiston» kabi gazetalarda turli yumushlarni bajargan. 1966—1982 yillarda «Toshkent oqshomi» gazetasida bo‘lim mudiri, 1982—1985 yillarda G‘. G‘ulom nomidagi nashriyotda bosh muharrir o‘rinbosari, 1985 yildan boshlab esa «Sharq yulduzi» jurnalining bosh muharriri bo‘lib ishlab keladi. U O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputati hamda Matbuot va axborot qo‘mitasining raisi bo‘lib ham ishlagan. O‘tkir Hoshimov ijodi publitsistikadan boshlangan bo‘lib, birinchi kitobi 1962 yilda «Po‘lat chavandoz» nomi bilan bosilib chiqqan. Uning ilk hikoyasi esa 1963 yili «To‘rt maktub» nomi bilan chop etilgan. Keyinchalik mazkur hikoya asosida «Cho‘l havosi» (1963) qissasi yaratilgan. Mazkur qissa haqida ustoz Abdulla Qahhordan olingen maktub, yosh adib ilhomiga ilhom qo‘shdi, dalda berdi. Shundan so‘ng uning «Odamlar nima derkin», «Shamol esaveradi» qissalari maydonga keldi. Ayniqsa, adibning «Bahor qaytmaydi» (1970), «Qalbingga quloq sol» (1973) kabi qissalari yozuvchiga shuhrat keltirdi. 1976 yilda mazkur asarlar muallifi Respublika Yoshlar mukofotiga sazovor bo‘ldi. Adib «Nur borki, soya bor» (1976) romanida jamiyat ijtimoiy hayotidagi illatlarni, turg‘unlikning mohiyatini ochish asnosida davrning muhim ma’naviy-axloqiy masalalarini ko‘tarib chiqdi. Shundan so‘ng u yana bir go‘zal asarni — O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Oybek mukofoti bilan taqdirlangan «Dunyoning ishlari» (1982) qissasini yaratib, ma’naviyat haqidagi bahsni davom ettirdi. O‘tkir Hoshimov ijodida «Ikki eshik orasi» romani alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Unda adib qariyb qirq yillik davrni o‘z ichiga olgan va bir qator chigal hamda murakkab taqdirlar misolida o‘z xalqining tarixiy qismatini mahorat bilan umumlashtirib berdi. Shu tufayli ham O‘. Hoshimov romani 1986 yilda Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi. O‘tkir Hoshimov hikoya janrida ham unumli ijod qilgan. Xususan, uning «Muhabbat», «Dehqonning bir kuni», «Urushning so‘nggi qurbanovi», «O‘zbek ishi» kabi asarlari o‘zbek hikoyachiligi rivojiga salmoqli hissa bo‘lib qo‘shildi. Uning «Qalbning oppoq daftari», «Muqaddas qasamni buzganlar», «Avlodlarga nima deymiz», «Mantiq qani?», «Davlat siri» kabi maqolalari esa so‘nggi yillar o‘zbek publitsistikasining yutuqlaridan biri bo‘ldi. O‘tkir Hoshimov mohir hikoyanavis, qissanavis, romannavis va publitsistgina emas, dramaturg sifatida ham zamonaviy adabiyot rivojiga ta’sir ko‘rsatdi. Uning «Hazon bo‘lgan bahor», «To‘ylar muborak»,



«Vijdon dorisi», «Inson sadoqati», «Qatag‘on» drama va komediyalari Respublika teatrлari sahnalaridan munosib o‘rin egallagan. «Daftar hoshiyasidagi bitiklar» (2001) kitobi ijtimoiy-ma’naviy hayotda muayyan iz qoldirgan. O‘tkir Hoshimov tarjimon sifatida O. Berggolts, S. Sveyg, Mustay Karim, V. Shukshin asarlarini o‘zbek tiliga ag‘dargan. Uning eng yaxshi va sara asarlari rus va boshqa tillarga tarjima etilgan. Adibning jami nashr etilgan asarlari ellikdan ortiq bo‘lib, ularning umumiy tiraji qariyb ikki milliondan oshadi. O‘. Hoshimovga samarali ijodiy mehnati uchun 1991 yili «O‘zbekiston xalq yozuvchisi» faxriy unvoni berilgan. «Mehnat shahrati» (1996), «Buyuk xizmatlari uchun» (2001) ordenlari bilan mukofotlangan. 2013 yil 24 may kuni Toshkent shahrida vafot etgan.

O‘zbekiston Xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov haqida.

«Bu uyda O‘zbekiston Xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov yashab, ijod qilgan (1941 – 2013)» deya yozilgan va ustoz barelefni o‘rnatalgan uyning qo‘ng‘iroq‘ini bosar ekanman, barmoqlarim bilinar-bilinmas titrar edi. Bu, ehtimol, yoshligimizda qo‘lma-qo‘l bo‘lib ketgan kitoblarini talashib, tunlarni tonglarga ulab o‘qib, bizni goh yig‘latib, goh quvontirgan asarlar muallifining xonadonida bo‘lish baxtiga shukronalik, ich-ichimdan ustozga hurmat-ehtirom, muhabbat tufaylidir...

Xalq maorifi a’lochisi, I darajali «Mehnat faxriysi» ko‘krak nishoni, «Fidokorona xizmatlari uchun» ordeni sohibasi, kichik jussali, ochiq chehrali, farishtamonand, kamsuququmgina O‘lmasxon aya Hoshimova darvozani ochib, ustozning ijodxonasi tomon boshladilar.

Ustozning ijodxonasi mo‘‘jazgina, kitoblarga to‘la javonlar, yozuv stoli va adibning siymosi aks etgan portret... Xuddi ishga ketganu, qaytadigan vaqt bo‘lib qolganday saranjom-sarishta.

O‘lmasxon aya yon-atrofga ishora qilgancha:

– Mana shu xona ularning asarlari tug‘ilgan ijodxonalari... O‘zлari kabi oddiy va kamtargina... – deydilar mehr va sog‘inchga to‘la horg‘inlik bilan.

Men sog‘inch haqida savol bermoqchi bo‘laman-u, yuragim betlamaydi.



Aya yoshlik yillarini eslar ekan, chehralarida ajib bir nur balqiydi go‘yo.

– U kishi oliygohning jurnalistika, men esa filologiya fakultetida tahlil olganimiz. 3-kursda tanishganmiz. Ko‘ngil yaqinligi tufayli bo‘lsa kerak, bir-birimizni yaxshi tushunar edik. 1969 yilda to‘yimiz bo‘lganida u kishi «Toshkent oqshomi» gazetasida ishlar, men esa aspiranturada o‘qir edim. Mumtoz adabiyotga ixlosim balandligi bois ilmiy ish qilish niyatida edim.

Meni universitetda ishga olib qolishdi. Talabalarga adabiyot nazariyasi va chet el adabiyotidan saboq berardim. Qaynonam rahmatli juda keksayib qolganlari uchun ilmiy ishimni to‘xtatishga qaror qilganman.

– YANGI OILA... UNGA KO‘NIKIB KETGUNCHA MUAMMOLAR BO‘LGANDIR?

– Biz oddiy va kamtarona hayot kechirganmiz. Ammo mehr-muhabbatli... Adib oddiy va ziyoli oilada voyaga yetganlar. Bobolari, otasi ziyoli, o‘qimishli odamlar bo‘lishgan, savdo-sotiq, dehqonchilik bilan shug‘ullanishgan. Ularning bobolari «Abulqosim madrasasi»ni qurdirgan, o‘scha davrdagi shahar va muzofotning eng etiborli kishisi Abulqosim eshon bo‘lgan. Otasi Ataulla Hoshimov ishchi bo‘lib, xiyla tajang, kamgap, haqparast inson bo‘lganlar. Qaynonam Hakima aya mehnatkash, sodda, kamtar, xalq og‘zaki ijodini yaxshi biladigan, laparlarni do‘ndirib aytadigan ayol edilar. U kishi shu qadar mehribon va kamtar edilar-ki, biron marta dilimni og‘ritmaganlar, desam ishonavering. Mahalla-ko‘y u kishini «poshsho oyи» deb chaqirsa, qaynonam meni erkalab «poshsho kelin» deb chaqirardilar. Ulardan juda minnatdorman. Menga ko‘p narsa o‘rgatganlar: muomala madaniyati, uy yumushlari, bola tarbiyasi... Qaynonam, onam va buvimlar meni oilada chidamli, sabr-qanoatli bo‘lishga, odamlarga mehribon bo‘lishga o‘rgatishgan.

Men «Do‘mbrobod» qishlog‘idagi shunday oilaga kelin bo‘lib tushganidan haligacha faxrlanaman. Bu qishloqning odamlari ham, men kelin bo‘lib tushgan xonodon kishilari ham juda mehribon va ajoyib insonlar. Qishloq haqida keyinchalik adibning o‘zları: «Men poytaxtning qoq biqinidagi qishloqda tug‘ildim... Qalamkashga qishloqning qalbi, shaharning aqli kerak», deb yozgan edilar.



USTOZNING HECH KIMGA O'XSHAMAGAN, O'ZIGA XOS XISLATLARI HAQIDA GAPIRSANGIZ.

– Juda adolatparvar inson edilar. Nohaqlikni ko'rsalar «yonib» ketardilar. Bu xislatlari asarlarida ham aks etgan. Shu bilan birga, kamsuqum, juda xokisor inson bo'lganlar. Shu qadar kamtar edilar-ki, hech qachon biron bir joyda o'zini ko'rsatishga harakat qilmaganlar, ta'magirlik degan illat ularga begona edi. Oddiy yashashni, oddiylikni yaxshi ko'rар edilar. Hashamatli hayotga intilmaganlar va dabdabani yomon ko'rardilar. Bu xarakter menda ham bor. Men ham dabdabani yoqtirmayman va zeb-ziynatga umuman qiziqmaganman. Bu bizning o'xshash tomonlarimiz.

Shu bilan birga, u kishi o'ta samimiyl, qalbi toza, xushfe'l, shinavanda, odamoxun inson bo'lganliklari uchun bo'lsa kerak, do'stlari, shogirdlari ko'p edi. Yosh ijodkorlarni qo'llashga intilar, ustozlarini hurmat qilar, ular bilan aka-ukadek yaqin munosabatda bo'lar edilar. Bu «Shumliklar»ga kirgan hangomalarda ham aks etgan.

Juda tirishqoq va mehnatkash edilar. Ijod jarayonida o'zlarini ayamas, o'zlariga nisbatan o'ta shafqatsiz edilar. Ijodxonalariga kirib, bir asarni yoza boshlasalar, kechayu-kunduz bosh ko'tarmay ishlar edilar. Ayniqsa, asarni tugatganlardan keyin har bir satrni qayta ko'rib chiqishga katta e'tibor qaratar edilar. Birorta so'z takror ishlatismasligi kerak edi.

Bir gal Abxzaiyaning Pitsunda shahriga bordik, Yozuvchilar ijodiy uyi tomonidan ajratilgan xonaga joylashdik. Men bolalarni dengiz bo'yiga olib boraman, u kishi xonadan chiqmay ishga sho'ng'iydilar. Oradan 10 kuncha vaqt o'tdi. Bir kuni xonaga qaytsak, yozgan 100 betcha narsasini yirtib tashlayaptilar. Qo'lyozmaning bir qismini qo'llaridan bazo'r olib qoldim. Qarasam, sarlavhasi «Ertaga kuz». O'qisam, binoyidek yozilgan.

«Bo'lmaydi! Sig'mayapti! Xom!» dedilar.

Oradan ikki yil o'tgach, «Ikki eshik orasi» yozib tugatilgach, nima xom va nima sig'mayotganini angladim. «Ikki eshik orasi»dek salmoqli, falsafiy, psixologik roman

avvalgi uslubga ham, qolip(kompozitsiya)ga ham sig‘ishi mumkin emas edi... Bu roman minglab o‘zbek xonadonlariga yetib bordi, deyarli uch yuz ming nusxada o‘n marta nashr qilindi, boshqa tillarga tarjima qilindi.

Adib hayotda nimaga-ki erishgan bo‘lsalar, hammasiga o‘z bilimi, iqtidori, mehnati bilan erishganlar. O‘z ustilarida ishlashdan charchamas edilar. Ana shu mehnatkashliklari bilan o‘zlariga yo‘l ochardilar. U kishining Alloh bergan tug‘ma iste’dodlari bor edi. Asarlarida ham ilohiylik bor. Ana shu narsa asarlarini umrboqiy qilgan bo‘lsa kerak. Negaki, qay bir asarini qaysi zamon yoki qaysi vaqtda o‘qisangiz ham hozirgina yozilganday, bugungi voqealarni o‘z ichiga olganday bo‘laveradi.



– USTOZNING HAYOTDA YOQTIRGAN VA YOQTIRMAGANLARI...

– Yolg‘onni, ikkiyuzlamachilikni, laganbardorlikni yomon ko‘rardilar. Bunday insonlar bilan sira murosa qila olmas edilar.

To‘g‘riso‘z, haqiqatgo‘y, insonparvar odamlar bilan muloqotda bo‘lishni yaxshi ko‘rardilar, suhbatdoshini jon qulog‘i bilan tinglardilar, uning dardu-iztirobini, baxtubaxtsizligini yurakdan his qila olardilar. Balki shuning uchun ham asarlari xalqchildir, shu bois kitobxonlar qalbidan joy olgandir.

Adibda ichki bir nur, ziyo bor edi. Bu tuyg‘u uning butun vujudiyu, chehrasida ufurib turardi. Qo‘llaridan kitob tushmas, mutolaa jonu-dili edi.

– OILADA QANDAY TARTIB-INTIZOMGA RIOYA QILINARDI?

– Oilamizda ota mavqeい nihoyatda baland tutilgan. Bu menga rahmatli qaynonamdan o‘tgan. Ular qaynotamni juda hurmat qilganlar. Farzandlariga otang kelayaptilar, desalar, bolalarining hammasi jimlik va tartib-intizomni saqlab, ota hurmatini joyiga qo‘yishgan. Nafaqat farzandlarim, balki neveralarim ham ularga o‘xshashini orzu qilaman. Men ham bolalarimga: «Adang ishlayaptilar», desam, shu so‘zning o‘zi kifoya edi. Hovlimiz shu qadar tinch va sokin bo‘lib qolardi-ki, hatto pashsha uchsa eshitilardi.



Bolalarimiz ham juda sezgir, odobli, intizomli bo‘lib, otasini juda yaxshi ko‘rib, hurmat qilganliklari uchun ularning ijod jarayonlariga xalaqit bermaslikka harakat qilishardi.

Adib oilaboshi sifatida juda zukko edilar. Har kuni bir bora xonadonimizga razm solib, nima kamchiliklar borligini anglar va ro‘zg‘or kamko‘stini shu kuniyoq butlab qo‘yish harakatida bo‘lardilar.

— ONALARIGA,

SIZGA

MUNOSABATLARI HAQIDA HAM TO‘XTALSANGIZ.

— U kishi onasiga ham, menga ham juda mehribon edilar. Umuman, barcha ayollarning hurmatini joyiga qo‘yardilar. Adib onasini shu qadar yaxshi ko‘rib e’zozlar edilar-ki, buni «Dunyoning ishlari»ni o‘qigan har bir kitobxon his qilishi mumkin. Nashrdan chiqqan har bir kitobini birinchi bo‘lib, «Mening birinchi ustozimga!» degan dastxat bilan onalariga berar edilar. Qaynonam ham bunday ehtiromga yuz karra loyiq ayol edilar. Sodda, mehnatkash, samimiylar, jonkuyar, xoksor....

Vaqt o‘tib angladim-ki, mehrni yetaklab kelar ekan. Qaynonamning mehri o‘g‘illariga, menga o‘tdi, bizning mehr-muhabbatimiz esa surriyodlarimizga yuqdi. Shu bois xonadonimiz mehr shu’lasi bilan charog‘on. Qaynona-qaynotamga havasim keladi. Bilasizmi, nima uchun? Mening turmush o‘rtog‘imday olajanob farzand tarbiyalaganlari uchun!

— INSON QANCHALIK MUKAMMAL BO‘LMASIN, OILADA BIR-BIRINI TUSHUNMASLIK HOLATLARI BO‘LIB TURADI, SHUNDAY EMASMI?

— Tushunmovchilik bo‘lgan holatlarda biz arqonni uzun tashlab qo‘yardik. U kishi tashqariga, ochiq havoga chiqib bir aylanib kelardilar, men esa ishimni jimgina qilib yuraverardim. Kelishlari bilan ilgarigiday gaplashib ketaverar edilar. Ikkalamiz ham gina va kek saqlamaganmiz.

— BOLALAR TARBIYASIDA KO‘PROQ NIMALARGA E’TIBOR QARATAR EDILAR?

— «Oilani muqadas bilmaganlar uchun muqaddas narsaning o‘zi yo‘q», deb yozgan edilar o‘z bitiklarida adib. Yana Farrux va Yulduz haqida: «Mening ikkita eng qimmatli «asarim» bor. Biri o‘g‘lim, biri qizim», deb ko‘p bora takrorlar edilar. Ota sifatida o‘zi farzandlariga o‘rnak ko‘rsatish orqali tarbiya berardilar. Mehribon bo‘lish bilan birga kerak paytida talabchan ham edilar. Biroq hech qachon bolalarni urishganini, hatto

ovozlarini baland ko‘targanlarini ko‘rmaganman ham, eshitmaganman ham. Bolalar otasining dilidagi fikrini nigohlaridan bilib olishardi: qarashlarining o‘ziyoq ularni tinchitardi. Ular biron nojo‘ya ish qilib qo‘yishsa, koyish, urishish o‘rniga ibratli bir ertak yoki hikoya aytib berardilar. Kerakli o‘rinlarda bolalar o‘z xatolarini to‘g‘ri anglashlari uchun ta’kid ohangi kuchliroq bo‘lardi. Shu yo‘sin ular nima yaxshi-yu, nima yomonligini, nima to‘g‘ri-yu nima noto‘g‘riligini anglashga o‘rgatilar edi. Mabodo o‘rtog‘i bilan arazlashib qolganini sezsalar, nasihat qilardilar: «Yaxshilab o‘ylab ko‘r, qilgan ishing to‘g‘ri bo‘lsa o‘rtog‘ingga tushuntir, noto‘g‘ri bo‘lsa, kechirim so‘ra».

Farzandlariga oilaparvar, sabr-qanoatli, odamlarga mehrli bo‘lishni, ularning qalb iztiroblarini his qilishni, muhtojga yordam qo‘lini cho‘zishni, haromdan hazar qilishni uqtirardilar. Shuning uchun ham ular o‘z bilimi, harakat va intilishlari bilan o‘qish, ishslash va halol yashashga o‘rgandi. Chunki ota: «...obro‘ qozonishning eng halol yo‘li – mehnat va kamtarlik», degan fikrlarni ularning ongiga singdirgan edi.

Bir gapni ko‘p takrorlardilar: «Ota uchun bola javobgar emas. Ammo bola uchun ota javobgar. Ota bolani dunyoga keltiradi va tarbiyalaydi». Darhaqiqat, oila tinchligi, totuvligi, avvalo, kattalarga bog‘liq. Ota aqlli, ona oqila, saranjom-sarishta, pazanda bo‘lsa, oila mustahkam bo‘ladi.

Nevaralari yonida bo‘lganda o‘zлari ham bolaga aylanib qolar, bolalarning beg‘ubor qiyqirig‘iyu, adibning samimiy kulgilari hovlini tutar edi. Ularga ertak aytib berishni qoyillatardilar: «Ali bolam, bali bolam, eshicingni och...», «...chori chambar, biri anbar, oyog‘ingni tort...», «...o‘ng qo‘limdan tortgina, chap qo‘limdan tort...» kabi hikoyalarini nevaralarimiz haligacha eslab o‘tirishadi.



– ADIBNING IJOD JARAYONLARI QANDAY KECHAR EDI?

– Ijod murakkab jarayon. Biror bir asar tug‘ilishidan oldin adib o‘ychan bo‘lib qolar, bu holati oylab davom etishi mumkin edi. Chunki asar, avvalo, miyada yozildi. Menimcha, yozuvchi yozilayotgan voqealar ichida yashar, qahramon qismatiga sherik bo‘lib, quvonsa quvonar, aziyat cheksa siqilardi. Asar yozilib bo‘lgach, turmush o‘rtog‘imning vujudidagi horg‘inlikni his qilib, yuragim ezilardi. Ko‘zlaridagi mammunlik esa ishidan qoniqish hissi ekanligini ko‘rib quvonardim. Shunda ijodkor qismati juda og‘ir va mashaqqatli jarayon ekanligini anglardim. Adibning: «Ijod – o‘ta

murakkab, mas'uliyatli, olis va mashaqqatli yo'l. Ijod jarayonida qandaydir ilohiylik bor. Haqiqiy ijodkor Alloh ko'ngliga solganidagina qo'liga qalam oladi. Chinakam badiiy asar yozilmaydi, tug'iladi», degan gaplarida jon bor. Asar qanchalik ravon o'qilsa, biling-ki, u ming mashaqqat bilan yozilgan bo'ladi. Shuning uchun ham adib kitobxonlar qalbiga asarlari tilining xalqchilligi, insonlar taqdirining haqqoniy tasviri orqali kirib bordi va xalq mehrini qozondi. Adibning o'zi aytganidek: «Kitobxon mehrini yalinib ham, zo'ravonlik qilib ham, sotib olib bo'lmaydi».

Xalq o'zining dardini tushunadigan, qalbiga yaqin bo'lgan ijodkorni sevadi. Bunday baxtga erishish juda mushkul. Adibga ana shunday saodat nasib etganidan baxtiyorman.

– ASARLARINING BIRINCHI O'QUVCHILARI KIMLAR EDI?

– Qirq yil davomida yozuvchining yaratgan asarlari qanday tug'ilganiga guvohman. Adib yangi asar yozish paytida xayolchan, biroz tajang bo'lib qolardilar. Ijodxonalariga kirib ketib, kechayu-kunduz butun borliqni unutib yozar edilar. Asar bitmaguncha hech kimga ko'rsatmas edilar. Agar yozganidan ko'ngli to'lsa, chehralari ochilib, qo'lyozmani bizga berardilar. Shu tariqa farzandlar bilan birga qo'lyozmani birinchi bo'lib o'qish baxtiga musharraf bo'lardik. Asar haqidagi fikrlarimizni og'rinmay inobatga olardilar. So'ng deyarli barcha asarlari Said Ahmad, Ozod Sharafiddinov, Umarali Normatov, Ibrohim G'ofurov, Abdug'ofur Rasulov, Nosir Fozilov, To'lqin Rasulov kabi ustozlar va do'stlari, hamkasblarining nazaridan o'tkazilardi.



– SIZ UZOQ YILLAR PEDAGOG SIFATIDA FAOLIYAT YURITGANSIZ. OILA YUMUSHLARI, KUNDALIK TASHVISHLAR, BUNING USTIGA IJODKORNING INJIQLIKLARI SIZNI CHARCHATMAGANMI?

– Inson bir-birini tushunsa, yashash juda zavqli bo'ladi. Biz bir-birimizni yaxshi tushunardik. Bolalar uy saranjomligiga qarashar, men oila a'zolarimning kiyim-boshiyu osh-ovqatini tayyorlardim. Ishqilib, hammasiga ulgurardik. 47 yil bo'lg'usi pedagoglarga «Jahon adabiyoti», «Notiqlik san'ati» kabi fanlardan saboq bergenman. Bugungi kunda shogirdlarimning ham sochlariiga oq tushgan, ta'lim darg'alariga aylanishgan. Mamlakatimizning barcha viloyatlarida shogirdlarim bor. Bayramlarda, yaxshi kunlarda yo'qlab, kelib turishadi. «Meni tanidingizmi ustoz?» deyishadi. Qarab

turib: «Sen Diloromsan, sen Saidasan, sen Husnorasan», deyman. Ko‘zlaridan taniyman ularni.

– ASAR YOZILISHIDAGI QUVONCH VA IZTIROBLAR HAQIDA HAM GAPIRIB BERSANGIZ.

– Asarni yozib tugatganlarida, ular nashrdan chiqqanida ko‘zları quvonchga to‘lganini ko‘rardim. Agar asar fojiali tugasa...

1980 yilda qaynonam olamdan o‘tdilar. Bu kishi juda qattiq qayg‘uga botdilar. Buni ko‘rgan adabiyotshunos-olimlar adibni «Sijjak»ka dam olishga olib ketishdi. O‘shanda: «O‘tkirxon, siz bu iztiroblaringizni qog‘ozga tushiring. Sizda bunga iqtidor bor-ku», deb maslahat berishibdi. «Dunyoning ishlari» asarining eng oxirgi boblari bo‘lgan «Illoj» bilan «Oq marmar, qora marmar»ning yozilishiga shu maslahat turki bo‘lgan. Bu asarning barcha boblarini ona – Poshsho oyim siymosi birlashtirib turadi, bu adib tomonidan o‘z onalari bilan birga barcha o‘zbek onalariga qo‘yilgan haykaldir.

Yozuvchining yig‘laganiga uch marta guvoh bo‘lganman. Birinchisi, qaynonam olamdan o‘tganlarida, ikinchisi, «Oq marmar, qora marmar»ni yozib tugatganlarida. Uchinchisi, «Ikki eshik orasi» romanini yozayotganlarida. O‘shanda ijodxonalariga kirsam, ko‘zları to‘la yosh, yig‘lab o‘tiribdilar. Menga qaradilar-da: «Munavvarni o‘ldirib qo‘ydim», deb chiqib ketdilar. Qarasam, qo‘lyozmalariga ham ko‘z yoshlari tomchilabdi... Ana shunday, ijodkorning quvonchiyu qayg‘usi hamisha birga yuradi.

«Tushda kechgan umrlar»da Rustam afg‘on urushidan qaytib kelib, o‘zini o‘ldirganida ham juda qattiq iztirob chekkanlar.

– USTOZNING USHALMAGAN ORZU-ARMONLARI BORMIDI?

– Adib shoira Nodirabegim hayoti haqida tarixiy roman yozishga kirishgan edilar. Afsus, tugata olmadilar. «Ayasi, shu romanni yozishga ulgurolmay qoldim, hali qilolmagan, qilishim kerak bo‘lgan qancha ishlarim bor edi», dedilar. Endi bularning hammasi armon...

«Daftar hoshiyasidagi bitiklar»dagi har bir fikr bir asar bo‘lishga arziydi: «Mehr», «Umr»... Qani edi iqtidorli bir ijodkor ishini davom ettirsa-yu, shu bitiklarni katta asarga aylantirsa...



– HAYOTDAN OLGAN SABOQLARINGIZ...

– Men 81 yil yashab shuni angladimki, hayot – kurash, hayot – o‘qimoq, hayot – bardosh, hayot – sabr – toqat, hayot-iroda, hayot – matonat, hayot – kechira olish kuchidir!

Bir muammo paydo bo‘ldimi – aybni o‘zingdan izlashing kerak: qayerda xato qildim, deb o‘zingga savol berib, albatta javobini topishing lozim.

Hayot – oqar daryo, umr suv misoli shoshib o‘tib ketadi. Ezgulik, yaxshi ishlar qilishga ulgurib qolish kerak. Men shunga intilaman. Kitob o‘qiymen, krossvord yechib aqlimni charxlab, xotiramni mustahkamlayman.

Tongda uyg‘onganingda oyoq-qo‘lingning butligi, joning sog‘ligi, oilangning tinchligi, yenishga bir burda noning borligi – mana shu BAXT!

Agar umrimni qayta yashash imkonи tug‘ilsa, yana shu hayotimni tanlardim. Men hayotimdan roziman.

Farzandlarim Farrux iqtisodchi, qizim Yulduz otasining kasbini tanladi – telejurnalist. Farruxda tashabbuskorlik, qat’iyatlilik, mehribonlik, Yulduzda aql-zakovatlilik, haqiqatparvarlik, kurashchanlik, ijodkorlikni ko‘raman. Nevaralarimning har birida bobosining bir xislatini ko‘raman. Xalq sevgan adibning hayoti farzandlari, nevaralari hayotida davom etayotganligini ko‘rib, Yaratganga shukrona aytaman.









Men turmush o‘rtog‘imdan hurmat ko‘rdim, mehr ko‘rdim, bundan ortiq yana nima kerak menga! Hech nima! Asl baxt ham shu!

2019 yili 8 mart – Xalqaro xotin-qizlar bayrami tadbiriga meni ham taklif qilishdi. Shu yerda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning bir guruh ilm-fan, adabiyot namoyandalarining rafiqalarini «Fidokorona xizmatlari uchun» ordeni bilan taqdirlash haqidagi farmoni o‘qib eshittirildi. Ular orasida men ham bor edim. To‘g‘risi, kutmagan edim, juda hayratlandim, ko‘zlarimga yosh qalqidi. Quvonch yoshlari edi bu! Nahotki, yozuvchining rafiqasi bo‘la turib, shunday buyuk e’tirofga sazovor bo‘lsam? Axir asrlar davomida hech bir zamonda yoki makonda, hech qaysi mamlakatda ijodkorning rafiqasiga bunday hurmat ko‘rsatilmagan. Bunday ehtirom uchun Yurtboshimizdan bir umr minnatdorman. Ko‘ksimga orden qadalgan onlar men uchun hayotimning eng nurli, quvonchli, unutilmas lahzalari bo‘lib qoladi!..

Saodat MATYOQUB qizi suhabatlashdi.
(«Adolat» gazetasidan)



O`tkir Hoshimovning asarlari



Farzandlarim! Men bu o'gitlarni yoza boshlaganimda senlar yosh bola eding... Xudoga shukr, mana, voyaga yetdilaring, oila qurib, farzandlar ko'rdilaring. Shu kungacha senlarning ortingdan «Falonchining bolasi falondaqa noma'qulchilik qilibdi», degan ta'na-malomat eshitganim yo'q. Iloyo, bundan buyon ham shunday bo'lsin. Bir burda nonini halollab yeydigan, vijdonli, imonli insonlar bo'lib yetishganlaring uchun Yaratganga shukronalar qilaman!

**Ўткир Ҳошимов
ФАРЗАНДЛАРИМГА ЎГИТЛАР**



ЎТКИР ҲОШИМОВ
ФАРЗАНДЛАРИМГА
ЎГИТЛАР
Ўткир Ҳошимов «Тунги парвоз»
теледастурида
www.kh-davron.uz

Uchrashuvlarda bir savolni ko'p berishadi: «O'zingiz uchun eng qimmatli asar qaysi?». Ko'pincha yarim hazil bilan javob qilaman: «Mening ikkita eng qimmatli asarim bor: biri — o'g'lim, biri — qizim!».

Senlar va nabiralarim menga Xudo bergan eng beba ho boyliksizlar... Shu bois, diqqat bilan eshititinglar! Bir narsani orzu qilaman. Bu dunyoda men qilgan yaxshi ishlardan aqalli bitta ko'proq yaxshilik qilsang... Bu dunyoda men qilgan xatolardan aqalli bitta kamroq.



Qush bo'lib osmonda uchma. Toshbaqa bo'lib, yerda sudralma.

Daraxt bo'l! Boshing — osmonda, oyog'ing yerda bo'lsin!

Shijoatli bo'l. Biroq andishasiz bo'lma. Andishali bo'l. Biroq shijoatsiz bo'lma.

Yomon bilan o'chakishma...

Ayolni kaftingda ko'tar, ammo boshingga chiqarma!

Nodonlar davrasida kar bo'l, Donolar davrasida soqov bo'l...

«Oshsiz uy bor, urishsiz uy yo'q», deydilar. Oilangda janjal chiqsa, eng avvalo, farzandlaringni o'ylab ish qil!

Hech kimga yomonlik sog'inma, hatto dushmaningga ham yomonlik tilasang, bir chekkasi o'zingga qaytib keladi. Negaki, olam bus-butundir.

Menga yuz marta ozor bersang, kechirishim mumkin. Onangga bir marta ozor bersang, kechirmayman: onang senga mendan ko'ra yuz hissa ko'p

*** Noningni yo'qotsang yo'qot, nomingni yo'qotma!

*** G'ururli bo'l, ammo dimog'dor bo'lma. Kamtar bo'l, ammo xokisor bo'lma...

*** O'z ota-onasiga mehr bermaganlarning o'z bolasidan mehr ko'rGANINI eshitGANIM yo'q. «Qaytar dunyo» deganlari shu...

*** Ota mehri ona mehridan kamroq emas, faqat «yashirin»roq bo'ladi.

Farzandlarim! Men bu o'gitlarni yoza boshlaganimda senlar yosh bola eding...Xudoga shukr, mana, voyaga yetdilaring, oila qurib, farzandlar ko'rdilaring. Shu kungacha senlarning ortingdan «Falonching bolasi falondaqa noma'qulchilik qilibdi», degan ta'na-malomat eshitganim yo'q. Iloyo, bundan buyon ham shunday



bo'lsin. Bir burda nonini halollab yeydigan, vijdonli, imonli insonlar bo'lib yetishganlaring uchun Yaratganga shukronalar qilaman!

DAFTAR HOSHIYASIDAGI BITIKLARDAN

Ustoz

Ustoz otangdan ulug', deganlari bejiz emas, Ota hayot beradi. Ustoz esa yashashga o'rgatadi. Tug'ilish oson, yashash qiyin...

Charxpalak

Maktabimiz biqinida ariq oqardi. Ariqda charxpalak bor edi. Katta tanafufusda charxpalakni tomosha qilishni yaxshi ko'rardim... yog'och gardishi ko'hna, temir paqirchalari zanglab ketgan. Parraklariga ko'kimir suv o'tlari yopishgan... birov yolg'ondan turtib yuborsa, rostdan qulab ketadigandek... charxpalak nolali g'iyqillab aylanadi. Kaftida suv ko'tarib, yuqoriga olib chiqadi... tepaga chiqib olgan suv ortiga qaytmaydi... charxpalak ham bunga ranjimaydi. Yangidan-yangi suv tomchilarini yuqoriga ko'tarib beraveradi... g'iyqillarydi...

Oradan ko'p yillar o'tib, o'sha charxpalak tushlarimga kiradigan bo'ldi. Nega shunday bo'lganini uzoq o'yladim...

So'ng... bir haqiqatni angladim. Men charxpalakni emas, ustozlarimni qo'msar ekanman.

Suv-suv emas, men ekanman! Charxpalak- charxpalak emas, o'qituvchilarim ekan!

Meni-bir tomchi svn katta hayot yo'liga olib chiqib qo'ygan ustozlarim-charxpalak zahmatini oqlay oldimmikan?... Bilmadim.

ҲАҚИҚИЙ ЁЗУВЧИ ХУДО КЎНГЛИГА СОЛГАНИНИ ЁЗАДИ Ўткир Ҳошимов билан сұхбат



Ижод – вақти-вақти билан
сайрибоғ қилинадиган
“шон-шүҳрат” гулшани эмас,
завқли, айни пайтда оғир
ва масъулиятли юмушдир.

Ўткир Ҳошимов

HAQIQIY YOZUVCHI XUDO
KO'NGLIGA SOLGANINI YOZADI
O'tkir Hoshimov bilan suhbat

Bundan salkam 50 yil avval so ‘z san’atkori Abdulla Qahhor O’zbekiston xalq yozuvchisi O’tkir Hoshimovning “Cho ‘l havosi” qissasini o‘qib: “Birdan lov etib alanga bilan boshlangan ijodning kelajagi porloq bo‘ladi. ...Shu alanga hech qachon pasaymasin, ijodingiz hech qachon tutamasin!” deb tilak bildirgan edi. Oradan yillar o‘tdi. Buyuk Abdulla Qahhorning duolari ijobat bo‘ldi. O’zbek adabiyotida yozuvchi O’tkir Hoshimov qalamiga mansub go‘zal qissalar va hikoyalar paydo bo‘ldi. Bu asarlar asosida suratga olingan videofilmlar yillar davomida zangori ekrandan tushmay, xalqimizning oltin merosiga aylandi. Urush degan baloning inson hayoti va ruhiyatidagi tajovuzkorona “aksi” – “Ikki eshik orasi” romanida mohirona “chizib” berildi. O’tgan asrda xalqimiz boshiga tushgan fojealar,adolatsizliklar va buning oqibatida toptalgan taqdirlar “Tushda kechgan umrlar” romanida aks ettirildi. Yoki...

Bir so‘z bilan aytganda, “alanga pasaymadi”. Ishonamizki, o‘zbek kitobxoni bu “alanga” taftidan hali uzoq yillar bahramand bo‘lajak.

– Adabiyot insonni bedorlikka undaydi. Tiriklik puchmoqlaridan ma’no, mohiyat axtarishga o‘rgatadi. Bu “axtarish” jarayoni esa insonga o‘zini tanitadi. Zero, o‘zni tanimoq, O‘zlikni anglamoqdir! Shu ma’noda, haqiqiy ijodkor ruhiyat muallimidir.

Chinakam badiiy asar o‘quvchi ruhiyatini yuksaltiradi. Hayajonga soladi. Asar qahramoni yig‘lasa qo‘shilib yig‘laydi, iztirob cheksa u ham iztirobga tushadi. Kitob o‘quvchining hayotiga, o‘quvchi kitob sahifalaridagi “hayot”ga aralashib ketadi. Siz yozibsizki, “Shunday asarlar yozsangki, kitobxon uni o‘qiganda hamma narsani unutsa. Asar qahramonlari hayoti bilan yashasa. Quvonsa, iztirob cheksa...”. Nazarimda, bu orzuga erishish yozuvchi uchun eng buyuk baxt va eng yuksak natija bo‘lsa kerak.

Bugungacha yozgan kitoblarining ichida ana shunday “natija”ga erishgani qaysi deb o‘ylaysiz? Umuman, so‘nggi yillarda adabiyotimizda sizni o‘quvchi sifatida hayajonga solgan, yozuvchi sifatida havas uyg‘otgan asarlar paydo bo‘ldimi?

– Savolningizning birinchi qismiga men emas, kitobxon javob qilgani ma’qul. Menga qolsa, ikkita hakam – Kitobxon va Vaqt sinovidan eson-omon o‘tgan asar – haqiqiy asar bo‘ladi. Savolning ikkinchi qismiga kelsak... Oqqan daryo oqaveradi. Adabiyot asrlar davomida yashab kelgan va bundan keyin ham yashayveradi. O‘quvchini hayajonga solayotgan asarlar bor. Birini aytsak ikkinchisi xayoldan ko‘tarilib, ukalarim va singillarimni ranjitim qo‘yishdan istihola qilaman. Yozuvchilar bog‘ida bo‘lgan yoshlar seminarida juda puxta shoirlar va yosh adiblar borligini ko‘rib, boshim osmonga yetdi...

– Sizning asarlaringizdagi qahramonlarning aksariyati xatolari uchun jazo tortishga mahkum etilgan. Misol uchun, “Bahor qaytmaydi” qissasidagi Alimardon, “Ikki eshik orasi”dagi Ra’no yoki “Tushda kechgan umrlar”dagi Komissar. Yozuvchi qahramonlariga “jazo tayinlash”da o‘z ruhiyatidan kelib chiqadimi yoki voqealar silsilasi buni taqozo qiladimi?

– Siz aytayotgan asar qahramonlari qismati anchayin murakkab. Agar muallif “dunyoda yaxshilik taqdirlanadi, yomonlik jazolanadi”, degan qadimiy aqidani shior qilib olsa, u

nasihatgo‘yga aylanib qolar edi. Asar yozilayotganida qahramonlar muallif boshida o‘ylagan “ko‘cha”dan emas, butunlay boshqa tomon yurib ketishi mumkin. Menga desa Alimardon tirik qolsa ham asarning ta’sir kuchi pasayib qolmas edi. Biroq u siz bilan men o‘ylagandan ko‘ra murakkabroq shaxs. Unda xudbinlik bilan birga mardlik ham bor. U birovdan mag‘lub bo‘lib yashagandan ko‘ra hayotdan ketishni afzal ko‘radi. Uni men emas, o‘zi halok qildi. “Tushda kechgan umrlar”dagi Komissar esa yetmish yillik zulm sultanatining timsoli. Oddiy emas, o‘ta xavfli manqurt! Eng muhim, o‘quvchi asardagi odamlar (“personajlar” emas, aynan ODAMLAR) qismatiga ishonsa, hayajonga tushsa, adibga shunisi kerak!

– XX asrni qaritgan “...izm”lar insoniyat boshiga mislsiz kulfatlar keltirdi. Inson ruhi, qalbi va ma’naviyati siyosiy mafkuraning quliga aylantirildi. G‘ayriislomiy va g‘ayriinsoniy g‘oyalar doyaligida “pioneer”, “komsomol”, “kommunist” singari mavjudotlar tug‘ildi. Mavjud siyosiy mafkura bilan “oziqlanib” ulg‘aygan bu avlodlar go‘yoki odamiyatning ideal vakillariga aylandi. Tabiiyki, ana shunday vaziyatda bu “vakillar” urush maydonlaridan, mehnat lagerlaridan, cho‘lu sahrolardan badiiy kitob sahifalariga ko‘chdi. Adabiy qahramonlarga aylandi. Ayni holat o‘zbek adabiyotida ham shaklan milliy, mazmunan “...izm”lar g‘oyasini tarannum etuvchi asarlar paydo bo‘lishiga olib keldi.

Bugun bu achchiq tarixni eslab, hech kimni malomat qilmoqchi emasmiz. Zero, haqiqiy yozuvchi o‘z davrining vijdoni, millatining ovozidir! Agar bu “vijdon” og‘rimasa, agar bu “ovoz” yolg‘on ohanglar taratsa... bu endi boshqa masala. Aytmoqchi bo‘lganimiz: ne tongki, o‘zbek adabiyotida ana shu g‘oyaviy ur-surlardan omon chiqqan asarlar talaygina. (Bu – nihoyatda jiddiy va quvonlarli holat) Jumladan, sizning asarlaringiz ham bu dolg‘ali davr sinovlaridan deyarli talofatsiz chiqdi. Albatta, bu haqda adabiy tanqidchilarimiz ham ancha-muncha yozdilar. Ularning e’tiroficha, bu yozuvchining rostgo‘yligi bilan bog‘liq ekan. Ayting-chi, yozuvchining “rost yozishi” degani nima o‘zi?

– Hozir men uchun eng muhim va eng qiyin jarayon – tanlangan asarlarni tanlash bo‘layotir. Ijod degani betakror bo‘lmog‘i kerak. Roman va qissalar, sahna asarlari va hikoyalar, hajviyalar va badialar orasidan eng yaxshilarini tanlash va ular bir-birini takrorlamasligi shart. Yaratganga shukronalar qilaman: badiiy asarlarning hammasi iloji boricha Inson haqida, uning qismati haqida yozilgan ekan! (Ularning badiiy saviyasi har xil bo‘lishi mumkin, eng yaxshilari, ya’ni bugungi kitobxonni ham o‘ylatadiganlarini tanlash kerak). Xullas, o‘sha asarlarni qayta ko‘rganimda butun-butun boblarni qaytadan yozish, ayrim qahramonlar qismatini “o‘zgartirish” yoki asardan umuman chiqarib tashlash zarurati bo‘lgani yo‘q. Biroq o‘sha paytdagi ayrim tushuncha va so‘zlarni to‘g‘rilash kerak bo‘ldi. Deylik bugungi kitobxonga “telefon budkasi”, “telefon trubkasi”, “avtobus to‘xtash joyi”, “student”, “ikkinchı kurs”, “rayon”, “uzel”, “uchastka”, “perashka” deganga o‘xhash so‘zlar begona. Ammo bular shunchaki, yo‘l-yo‘lakay tuzatiladigan detallar xolos.

Rostgo‘ylik masalasiga kelsak. Bu printsip bizning avlodga Qahhor domla va Ozod domlalardan yuqqan. Abdulla Qahhorning yaxshi ta’biri bor, eshitgansiz: “Adabiyot –

atomdan kuchli, uning kuchini o‘tin yorishga sarflamaslik kerak”. Ustozning tag“in bir go‘zal tashbehi bor edi. “Haqiqiy yozuvchi SO‘Zni tonnalab olib, grammlab sotadi!” Bunga kim qanchalik erishgani yoki erishmaganini aytolmayman. Biroq asarda har bir so‘z, har bir jumla ma’no tashishi va jaranglab turishi kerak.

– Ijodkor degan nomga munosib bo‘lish uchun avvalo iste’dod kerak. Iste’dod degani esa pulga sotilmaydi yoki uni o‘qib o‘zlashtirib bo‘lmaydi. Bu jihatdan yozuvchilik qalb amri bilan bog‘liq jarayon. Shuning uchun bo‘lsa kerak, yozuvchilikni “ko‘ngil ishi” deydilar. Harqalay, adabiyotimiz darg‘alari ana shu aqidaga binoan faoliyat yuritganlar. Ya’ni, bu zotlar boshqa kasb bilan tirikchilik qilib, bo‘sh vaqtlarida “ko‘ngil ishi” bilan mashg‘ul bo‘lishgan. Darvoqe, ular “ko‘ngil ishi” uchun birovdan qalam haqi ham olmaganlar. Ammo keyinchalik yozuvchilik tom ma’noda ijtimoiy-ma’naviy masalaga aylanib qoldi…

– Ijod – chindan ko‘ngil ishi. Haqiqiy yozuvchi Xudo ko‘ngliga solganini yozadi. So‘zning ilohiyligi, badiiy ijodining qudrati ham shunda. To‘g‘ri, Alisher Navoiy hazratlaridan tortib Maxmurgacha barcha ijodkorlar biron davlat ishida faoliyat ko‘rsatgan yoki ma’lum hunar egasi bo‘lganlar. Muqimiyy xattot, Gulxaniy hunarmand, Zavqiy mahsido‘z, Ogahiy mirob, Avaz O‘tar sartarosh, Maxmur sarboz bo‘lgan. Biroq haqiqiy ijod hech qachon “shaxsiy masala”, “ko‘ngil ishi” bo‘lib qolgan emas. Agar shunday bo‘lsa, shoir yozgan she’rini o‘zi sevgan mahbubasiga, adib esa romanini ulfatlariga o‘qib bersa, shu bilan kifoya qilgan bo‘lur edi. Qalamkashlar asarlarini kitob qilib chiqarib ovora bo‘lib yurmasdi.

Endi savolningizning ikkinchi qismi – ijod ahli mehnatini rag‘batlantirish masalasiga kelsak. Hazrat Navoiy bilan shoh Boburga til tekkizmay qo‘ya qolaylik. Navoiy hazratlari ulkan saltanatning bosh vaziri bo‘lganlar. Vaqt kelsa, sulton Husayn Boyqaroning o‘zi ham Mavlonodan qarz olib turgani haqida gap-so‘zlar yuradi. Bobur esa o‘z nomi bilan shoh bo‘lgan. Binobarin, ular qalam haqiga ehtiyoj sezmaganlar. Bundan tashqari, ushbu allomalarining asarlarini xattotlar nari borsa, yuz nusxa, ming nusxada ko‘chirganlar. Siz aytgan boshqa shoirlar ham qalam haqi nimaligini bilmaganlar. Ammo aytning-chi, ko‘zi tirikligida Gulxaniyning nechta kitobi chop etilgan? Muqimiyning-chi? Ogahiy, Zavqiy, Avaz O‘tar, Maxmurning nechta kitobi necha ming nusxada chiqqan va necha yuz mingga sotilgan?

Bugungi kunda kitoblar (haqiqiy badiiy asarlarni nazarda tutayapman) o‘n minglab nusxada chop etilib, millionlarga sotilyapti. Ya’ni, kitob – tovarga, tovar esa – pulga aylanyapti. Bu – tabiiy hol. Adib asar yozmasa, nashriyotga olib bormas edi. Nashriyot uni kitob qilib chiqarishdan moddiy manfaat ko‘rishga ko‘zi yetmasa, tahrir qilmasdi. Matbaa korxonasi foyda ko‘rmasa o‘n minglab, yuz minglab nusxada chop etmasdi. Kitob savdosi foyda ko‘rmasa, “erkin narxda” sotmasdi. Demak, yozuvchining “ko‘ngil ishi” faqat ma’naviy emas, moddiy boylikka ham aylandimi? Uning mehnatidan boshqalar ham ozmi-ko‘pmi naf ko‘ryaptimi? Shunday ekan, kitobdan boshqalar qatori muallif ham moddiy manfaatdor bo‘lishga haqli. Negaki asarni yo‘q joydan bor qilgan muallifdir.

Jahon qonunchiligidagi, jumladan “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonunda muallifga kitob nominal bahosining o‘n foizigacha haq berish mumkin, degan mezon bor.

Bugun hamma yerda bo‘lgani kabi bizning mamlakatda ham kitob nashr etish butun bir industriyaga aylangan. Bu esa yozuvchilik qandaydir “shaxsiy yumush” emas, jiddiy, ma’naviy, ijtimoiy hodisaga aylandi, degani. Negaki, kitob o‘n minglab xonadonlarga kirib boradi va kitobxonlar ongini shakllantiradi.

– O‘tkir aka, rostini aytsam, yuqoridagi mulohazalarni endi berilajak savolga zamin hozirlash uchun aytgan edim. Haqiqatdan ham yozuvchilik “shaxsiy yumush” emas. Chunki bu “yumush” o‘n minglab xonadonlarga kirib borar ekan, endi u ijtimoiyma’naviy ahamiyat kasb etadi. Agar mana shu talab nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, keyingi paytlarda paydo bo‘layotgan ayrim “asar”lar kishini tashvishga soladi. Deylik, hamyoni baquvvaturoq bir o‘rtoq “ko‘ngil ishi”da – “roman” yozadi. Xarobgina “roman”ni nashriyot muharriri “uh” torta-torta tahrir qilib chiqadi. Matbaa korxonasi chop etadi. Kitob savdosi “roman”ni sotadi. Qarabsizki, “asar” kitobxonga yetib boradi va... endi, natijani siz aytинг.

– Adabiyotimiz ravnaqi uchun muhim ahamiyat kasb etadigan bosqich, bu – qalamkash va nashriyotning aloqasi masalasidir. Bugungi kunda Respublikamizda o‘nlab nashriyotlar, yuzlab bosmaxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda. Qonunga binoan layoqatli har bir yuridik yoki jismoniy shaxs noshirlik faoliyati bilan shug‘ullanishga haqli. Ommaviy axborot vositalari singari nashriyotlar ham ko‘p bo‘lgani yaxshi. “Sharq” nashriyotmatbaa aktsiyadorlik kompaniyasi, “O‘zbekiston”, “Yangi asr avlod”, G‘afur G‘ulom nomidagi va boshqa nashriyotlar bilan bir qatorda bir qancha nodavlat va xususiy nashriyotlar ham bor. Insof bilan aytganda, ularda ham yaxshi-yaxshi kitoblar nashr etilmoqda. Masalan, “Mumtoz so‘z” nashriyotida...

Afsuski, noshirlar orasida bozor boshida o‘tirib olgan chayqovchilarni eslatadiganlari ham yo‘q emas. Yuqorida aytilgan, yozuvchilikning ko‘chasiga kirmagan “adib”larning bozorini chaqqon qilayotganlar shunday noshirlardir. Ular eshikdan kirib kelgan muallifning iste’dodi, yozgan asarining badiiy quvvatiga emas, cho‘ntagiga qarab baholaydilar. Bir tanishim shunday nashriyot direktorining xonasiga kirib, tasodifan guvohi bo‘lgan hangomani aytib bergen edi.

Shunday qilib, bashang kiyingan bir odam xonaga kiradi va direktorga “zo‘r roman” yozib tashlaganini, shuni tezroq va chiroyliroq kitob qilish kerakligini, taxminan besh ming nusxada chop etishning “xarajati” qancha bo‘lishini so‘raydi. Nashriyot rahbari kitob o‘rtacharoq hajmda bo‘lsa, shuncha tirajdagi nashr bahosi taxminan falon so‘mlarga tushishini, shuning uchun o‘n besh-yigirma foizini oldindan “predoplata” qilish lozimligini aytadi. Boyagi “klassik adib” diplomatidan bir salapan xalta pul chiqarib, “mana, o‘scha “predoplata”, uch oyda kitobimni chiqarsangiz, qolganini olasiz”, deydi.

Bilmadim, balki bu anchayin oshiribroq aytilgan gapdir. Qolaversa, bozor iqtisodi sharoitida noshirlarga ham oson emas. Jamoaga maosh berishi, qog‘oz sotib olishi kerak,

yana allaqancha xarajatlar bor. Lekin u “roman” qo‘ltiqlab kelgan o‘sha “janob”dan “baraka topgur, o‘zingiz kimsiz, avval biron satr yozganmisiz, qo‘lyozmangizni kim o‘qidi, kim tavsiya qildi?” deb so‘rashi kerak-ku! Yo buyog‘i “taka bo‘lsin, sut bersin”mi? O‘sha romannavis muallifda Xudo yuqtirgan iste’dod bo‘lsa-ku, haloli bo‘lsin! Iste’dod bo‘lmasa-chi? Roman yozish g‘isht quyish emas-ku! Lev Tolstoydek daho adib yetmish yil faol ijod qilganiga qaramay nima uchun bor-yo‘g‘i uchta roman yozgan? Xohlasa, yetmishta romanni qoyil qilib tashlashi mumkin edi-ku! O‘zimizning ustozlar – Abdulla Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor, G‘afur G‘ulom, Said Ahmad, Asqad Muxtor, Shuhrat domla, Hamid G‘ulom, Mirzakalon Ismoiliy, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, O‘lmas Umarbekovlar ham xohlasa besh-o‘ntadan roman qoldirishi mumkin edi-ku! Nega bunday qilishmagan? Gap shundaki, roman yozish uchun roman tafakkuri, roman qamrovi kerak. Qolaversa, uch yuz yoki besh yuz sahifaning hammasini bab-baravar yoritib turadigan qalb alangasi kerak! Kitobxonni larzaga soladigan insonlar qismati, xalq va jamiyat hayotining katta qatlamini tasvirlash zarur. Oxir-oqibat o‘sha asar kitobxonning ma’naviy mulkiga aylanishi kerak. Badiiy adabiyot degani shunchaki “shaxsiy kuzatuvlar” yoki oldi-qochdi “voqeanaavislik” emas!

Ustoz Abdulla Qahhorning bir gapi bor edi. “Uchuvchilikni bilmagan odamni samolyot shturvaliga yaqin yo‘latmaydilar. Ammo yozuvchilikning ko‘chasiga kirmagan odam “asar” yozib tashlasa, hech kimning ishi yo‘q!” Iste’dodi mundayroq bo‘lsa ham “qo‘li uzun yozuvchi”ning “shedevr” kitobini qanday qismat kutadi? Bu holat ikki xil bo‘lishi mumkin: kitob chiqqach, yillab do‘konlarda chang bosib yotadi yoki aksincha, muallifning “ta’siri” bilan sotilib ketadi. Ammo har ikki holatda ham bunday “ijod namunasi”ning foydadan ko‘ra zarari ko‘proq bo‘ladi. Sababi, u kitobxonni haqiqiy adabiyotdan chalg‘itadi. Xalqqa ma’naviy zarar keltiradi. Shu kitob o‘rniga bosilishi mumkin bo‘lgan boshqa iste’dodli asarlarning yo‘lini to‘sadi. Bunisi ham ma’naviy zarardan bo‘lak narsa emas.

“Samizdat” degan tushuncha boshqa mamlakatlarda ham bor. Mayli, kimdir “nom qoldirish” uchun kitob chiqarmoqchi ekan, bunga yo‘l berish kerakdir. Biroq bunaqa kitoblar iste’dodli qalamkashlar, ayniqsa yosh ijodkorlarning asari o‘rniga chiqmasligi kerak.

Yurtboshimiz ta’kidlaganidek, “Bugungi kunda nashriyotlarga to‘la erkinlik berilgan, ularning faoliyatiga hech kim chetdan turib aralasha olmaydi. Lekin ana shu erkinlikni to‘g‘ri tushunish, masalaga mas’uliyat bilan yondoshish darkor. Ya’ni, faqat iqtisodiy manfaat ortidan quvib, badiiy jihatdan zaif, milliy ma’naviyatimiz, qadriyatlarimizga to‘g‘ri kelmaydigan, adabiyotning obro‘sini tushiradigan kitoblar nashr etilishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak!”

Ko‘pchilik qalamkashlarni tashvishga solayotgan bu masalaga davlatimiz rahbarining o‘zi bu qadar oydinlik kiritgani jiddiy gap!

Albatta, so‘z erkinligi, hurfikrlik ulug‘ tushuncha. Bu o‘rinda gap taqilash, “tsenzura qilish” haqida ketayotgani yo‘q. Biroq iste’dodi bormi-yo‘qmi, xohlagan odam xohlagan “asarini” yozaversa, xohlagan noshir xohlagan kitobini bosaversa, xohlagan

“savdo xodimi” xohlagan kitobini xohlagan joyida “erkin narx”da sotaversa, bular ma’naviyatga qanday ta’sir qilarkin?

– Modomiki, o‘quvchiga asar taqdim qilish, kitob nashr etish jarayoni shu qadar mas’uliyatlari ekan, endi tayyor kitobni sotish muammosi ham chakana masala emas. Zero, millat ma’naviyatiga, ma’rifatiga daxldor masalalarga shunchaki qarab bo‘lmaydi.

– Kitob savdosi – adabiyot taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydigan masala. Tan olishimiz kerak, kitob savdosi sohasida ham muammolar yetarli. Albatta, kitob savdosini to‘g‘ri va oqilona yo‘lga qo‘ygan tashkilotlar yo‘q emas. Masalan, “Sharq ziyokori” kitoblar markazi faoliyati ko‘p tomonlama o‘rnak bo‘lарlidir. Bu yerda “Sharq” nashriyotmatbaa aktsiyadorlik kompaniyasi bosh tahriri yati tomonidan chop etilgan kitoblargina emas, boshqa nashriyotlarning mahsulotlari ham sotiladi. Markazning hamma viloyatlarda bo‘limlari bor. Hozir Toshkentdagi bir necha oliy o‘quv yurtlarida kitob savdosi tashkil etilmoqda. Muhimi, markaz tasarrufidagi tarmoqlarda kitoblar qat’iy belgilangan narx bilan sotiladi. Bu masalaga alohida to‘xtalishga to‘g‘ri keladi.

“Bahosi erkin narxda” degan, bosh-ketining tayini yo‘q tushuncha mavjud ekan, odamlarga ma’qul kitoblar savdosida mantiqqa zid vaziyatlar paydo bo‘laveradi. Noqulay bo‘lsa ham bir misol aytishim mumkin. “Sharq” kompaniyasida chop etilgan bir kitobimning “nominal bahosi” ikki yarim ming so‘m deb belgilangan edi. “Sharq ziyokori”dan o‘zim ham shu bahoda sotib oldim. Oradan ko‘p o‘tmay, shahar markazidan taxminan besh chaqirim naridagi bir joyda shu kitobning o‘zi yetti ming so‘mdan sotilayotganini ko‘rib hayron qoldim. Tasavvur qiling, kitobni bir do‘kondan sotib olib, nariroqqa borib sotayotgan “ishbilarmon” har bir kitobdan uch hissa “daromad qilsa” va bu bir necha yil ijod qilib, asar yozgan muallif olgan qalam haqidan anchagini ko‘p bo‘lsa, g‘alati tuyular ekan. Yana talay el sevgan adib va shoirlarning kitobi ham turli joylarda ikki-uch hissa qimmatiga pullanayotganini ko‘rdim. Albatta, kimdir sening mehnating mevasidan ozmi-ko‘pmi manfaatdor bo‘lsa, Xudoga shukr qilmoq kerak. Biroq insof sari baraka, degan gap ham bor.

Menga qolsa (boshqa hamkasblar ham bu fikrga qo‘shiladi, deb o‘ylayman) kitobim qancha arzonroq sotilib, qancha ko‘proq o‘quvchiga yetib borsa, shuncha yaxshi. Demoqchimanki, kitob savdosi masalasida ham to‘planib qolgan ancha muammolar bor. Mamlakatimizning chekkaroq shahar va qishloqlarida kitob do‘konlari yo‘qligi, borlari ham yopilib, o‘rniga boshqa narsalar sotiladigan savdo “tochkalari”ga aylanib ketgani juda jiddiy muammo. Kitob narxini nazorat qilish ham allaqachon yetilgan masala. Bu o‘rinda “bozor iqtisodi”ning “erkin narx” degan tushunchasi o‘zini oqlamaydi. Jahon tajribasidan o‘rgansak bo‘ladigan misollar bor. Deylik, Germaniyada har yili aholi jon boshiga o‘rtacha yuz dollarlik kitob xarid qilinadi. (Kattalar va bolalar adabiyotini qo‘sib hisoblaganda). Eng muhimi – u yerda kitob qat’iy narx bilan sotiladi. Xuddi aptekadagi dori-darmonlarni belgilanganidan qimmat sotish mumkin bo‘limgani kabi kitobni ham “ustama narx” qo‘yib pullagan sotuvchi qonun oldida javob beradi! Menimcha, bu tajribani ham o‘rgansak zarar qilmaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, qalamkashlik shunchaki havas uchun qog‘oz qoralash emas. Adabiyot – hali aytganimizdek jiddiy ma’naviy-ijtimoiy hodisa, ma’naviyat binosini tutib turgan ustunlardan biri. Ijodkor esa xuddi qadimiy yunon afsonalaridagi atlantlar kabi o‘sha ustunni yelkasida ko‘tarib turishga mahkum. Zero, ijod – vaqt-vaqt bilan sayribog‘ qilinadigan “shon-shuhrat” gulshani emas, zavqli, ayni paytda og‘ir va mas’uliyatlari yumushdir.

Foydalangan manbalar:

“Yoshlik” jurnali, 2011 yil, 3 (244)-son.

Xurshid Davron kutubxonasining electron ma`lumotlari

Internet manbalari:

taffakur.net

Ilmlar.uz

Akademiklar.uz